

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.I.07.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI

ISMOYILOV AZAMAT ISROYILOVICH

**QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDA KOOPERATSIYA
MUNOSABATLARI VA UNING IQTISODIY TAHLILI (FERMER XO'JALIKLARI
MISOLIDA)**

08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand-2026

UO'K: 338.43:639.3
(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economic sciences**

Ismoyilov Azamat Isroyilovich

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida kooperatsiya munosabatlari va uning
iqtisodiy tahlili (former xo'jaliklari
misolida).....3

Исмаилов Азамат Исраилович

Кооперативные отношения в сельскохозяйственном производстве и
их экономический анализ (на примере фермерских
хозяйств).....26

Ismoyilov Azamat Isroyilovich

Cooperation relations in agricultural production and its economic analysis
(in case of farms).....48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.I.07.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI

ISMOYILOV AZAMAT ISROYILOVICH

**QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDA KOOPERATSIYA
MUNOSABATLARI VA UNING IQTISODIY TAHLILI (FERMER XO'JALIKLARI
MISOLIDA)**

08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3425 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (samaguni.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Babaxolov Sherzod Baxtiyorovich iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Axrorov Farxod Baxridinovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Oripov Maxmud Ashurovich iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.08/2025.27.12.I.07.02 raqamli ilmiy kengashning «_____» _____ 2026-yil soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi, 7-uy,. Tel. +998 66 492 81 16, e-mail: info@samaguni.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi, 7-uy,. Tel. +998 66 492 81 16). Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «___»_____kuni tarqatildi

(2026 yil _____dagi №____raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.T.Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

Sh.B.Babaxolov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.f.d., (PhD)

O.Murtazayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi kichik fermer xo'jaliklari yetakchi o'rinni egallaydi. Dunyoda ekin maydonlarining atigi 12 foizi ular hissasiga to'g'ri kelsa-da, global qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 80 foizidan ortig'ini yetishtirib beradi. Biroq, ushbu xo'jaliklarda ishlab chiqarish, sotish va resurslarni kiritishda transaksion xarajatlarning yuqoriligi, bozor infratuzilmasining yetishmasligi, tavakkalchilikning kuchliligi hamda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining sustligi tufayli barqaror daromad shakllantirishda jiddiy muammolarga duch kelinmoqda¹. Bunday sharoitda fermer xo'jaliklari o'rtasida kundalik amaliyotda bir-biriga yordamga asoslangan gorizontallik hamkorlik shakllari muhim omilga aylanmoqda. Shu bilan, rivojlanayotgan mamlakatlarda fermer xo'jaliklari o'rtasida norasmiy va rasmiy kooperativ hamkorlik shakllari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va mahsulotni bozorga yetkazishni osonlashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi, bu esa barqaror daromadni ta'minlash va qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va muassasalari fermer xo'jaliklari o'rtasida shakllanadigan rasmiy va norasmiy kooperativ guruhlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlariga, mahsulot sifatiga va daromadga ta'sirini aniqlash va baholash bo'yicha keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Bu tadqiqotlar fermerlar o'rtasida hamkorlikning iqtisodiy samaradorligini, resurslardan samarali foydalanishni, ishlab chiqarish jarayonlarining muvofiqlashuvini va bozorda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda kooperatsiya munosabatlari urug'lik va texnika resurslarini birgalikda ishlatish, suv va o'g'it bilan ta'minlash, mahsulotni yig'ish, saqlash va tashish jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda bozorga chiqish va sotuv kanallarini kengaytirish orqali xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot sifati va daromad barqarorligini ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, tadqiqotlar fermer xo'jaliklari o'rtasidagi kooperatsiya munosabatlarining mahalliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi ijtimoiy ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilib, samarali kooperatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda fermer va dehqon xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hal qiluvchi o'rin egallaydi. Mamlakatimizda qishloq hududi aholisining qariyb uchdan bir qismining daromad manbai aynan qishloq xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromadlar hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti chuqurlashib borishi bilan fermerlar oldida mahsulotni nafaqat miqdor, balki sifat bo'yicha ham raqobatbardosh yetishtirish vazifasi paydo bo'lmoqda. Biroq, ishlab chiqarish zanjiridagi subyektlar

¹ World Bank. (2024). *World Development Report 2024: Agriculture in transition economies*.

(urug'lik yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar, saqlash va qayta ishlash korxonalari, tayyorlov tashkilotlari, xaridorlar) bilan iqtisodiy munosabatlarning yetarlicha shakllanmaganligi natijasida fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari oshib, faoliyatdan keladigan daromadlar esa past bo'lib qolmoqda. Bu borada, global iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, pandemiya kabi omillar fonida norasmiy kooperatsiya fermer xo'jaliklarining moslashuvchanligini oshiruvchi, risklarni kamaytiruvchi va resurslardan optimal foydalanish imkonini beruvchi omillarni tahlil etgan holda ilmiy-amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 8-noyabrdagi O'RQ-995-son "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-martdagi PF-4239-son "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jalik kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 10-oktyabrdagi PQ-3318-son "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 6-maydagi PQ-4704-son "Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida kooperatsiya munosabatlari, uning tashkiliy-huquqiy asoslari, iqtisodiy samaradorligi va fermer xo'jaliklari faoliyatiga ta'siri masalalari O'zbekiston olimlari, jumladan Sh.T.Hasanov, N.Djanibekov, D.Xolmirzayev, D.Niyozov, N.R.Mullaboyev, S.N.Xamrayeva² va boshqalar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi sohasidagi institusional asoslar, integrasiya jarayonlari, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni tahlil qilishga qaratilgan.

Aynan kartoshka yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish va tarmoqda kooperatsiya munosabatlarini takomillashtirish yo'nalishida S.J.Saidjonov, B.T.Hasanov va Sh.A.Sherqobilov³ tadqiqotlar olib borishgan.

² Hasanov, Sh. T. (2019). Qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.; Djanibekov, O., & Sanayev, G'. N. (2019). Qishloq xo'jaligida institutsional islohotlar va kooperatsiya. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 4, 21–28.; Xolmirzayev, D. (2018). Agrar sohada kooperatsiya va integratsiya masalalari. Iqtisodiy tahlil, 1, 60–66.; Niyozov, D. (2017). Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida kooperatsiya munosabatlari. Ilmiy axborotnoma, 5, 55–61.; Mullaboyev, N. R. (2021). Kooperatsiya va qishloq hududlari rivoji. Hududiy iqtisodiyot, 1, 73–80.; Xamrayeva, S.N., & Fayziyeva, Sh.Sh. (2020). Qishloq xo'jaligi kooperativlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Iqtisodiyot va jamiyat, 2, 88–94.

³ Саиджонов С.Ж. Картошкачиликнинг ривожланиши ва уни иқтисодий самарадорлигини ошириш: авт. ... дисс. и.ф.н. – Т.: 2009 й.; Ҳасанов Б.Т. Озиқ-овқат таъминотида картошка етиштириш қиймат занжири субъектлари фаолиятини такомиллаштириш (Самарқанд вилояти мисолида): авт. ... дисс. и.ф.ф.д. – Т.: Қарши, 2024 й.; Ш.А.Шерқобилов. Картошкачиликни

Ushbu tadqiqotlar kartoshka ishlab chiqarishning iqtisodiy potentsiali, hosildorlik va daromadni oshirish mexanizmlari hamda fermer xo'jaliklari o'rtasida kooperatsiya jarayonlarini rivojlantirishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, ular kartoshkachilik qiymat zanjiridagi resurslardan samarali foydalanish, texnika va mahsulot logistikasi, shuningdek kooperativ tuzilmalar orqali bozorga chiqish imkoniyatlarini takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy asoslagan.

Shuningdek xorijiy olimlardan J.Bijman, M.Burress, V.Valentinov, J.Nilsson, M.Fulton, K.Zeuli, M.M.Islam, P.P.Barman, X.Xu, Y.B.Cui, Z.J.Li⁴ kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida fermer xo'jaliklari o'rtasida shakllanadigan kooperativ tuzilmalarning samaradorligi va iqtisodiy ahamiyatiga oid e'tiborga molik natijalar olingan. Ushbu tadqiqotlarda asosan kooperatsiyaning iqtisodiy mohiyati va fermer xo'jaliklarining bozor munosabatlariga integrasiyasiga e'tibor qaratilgan. Ammo, ushbu tadqiqotdan farqli ravishda, ilmiy ishda kooperatsiya asosida resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, daromad barqarorligini ta'minlash hamda qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli ilmiy jihatdan tahlil qilingani ushbu yo'nalishning dolzarbligini va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini namoyon etadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertasiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy -axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertasiya Samarqand agroinnovasiyalar va tadqiqotlar institutining agrar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mos ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini iqtisodiy baholash va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

барқарор ривожлантиришнинг иқтисодий асосларини такомиллаштириш: авт. ... дисс. и.ф.ф.д. – Т.: – Тошкент, 2025 й. – 56 б.

⁴ Bijman, J., & Iliopoulos, C. (2014). Farmers' cooperatives in the EU: Policies, strategies, and organization. *Annals of Public and Cooperative Economics*, 85(4), 497–508.; Burress, M., & Cook, M. (2009). A primer on cooperative life cycles. *Journal of Cooperatives*, 23, 1–22.; Valentinov, V. (2007). Why are cooperatives important in agriculture? *Journal of Institutional Economics*, 3(1), 55–69.; Nilsson, J. (2001). Organisational principles for cooperative firms. *European Review of Agricultural Economics*, 28(3), 329–352.; Fulton, M., & Hueth, B. (2009). Cooperative conversions, failures and restructurings. *American Journal of Agricultural Economics*, 91(5), 1305–1311.; Zeuli, K., & Cropp, R. (2004). *Cooperatives: Principles and practices in the 21st century*. Madison: University of Wisconsin Extension. Pillay, T. V. R., & Kutty, M.N. (2005). *Aquaculture: Principles and practices*. Oxford: Blackwell Publishing. Shamsuzzaman, M. M., & Islam, M.M. (2018). Barman, P.P., & Al-Mamun, M.A. (2016). Smallholder aquaculture and rural livelihoods. *World Development*, 79, 21–36.; Xu, X., Cui, Y. B., Li, Z. J., & Wang, S. (2019). Agricultural cooperatives and farmer income. *China Agricultural Economic Review*, 11(2), 258–274.

Tadqiqotning vazifalari:

qishloq xo'jaligi rivojlanishida kooperatsiya munosabatlari va ularning xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda kooperatsiya munosabatlarini iqtisodiy baholashda mavjud uslubiy yondashuvlarni tadqiq etish;

Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning holati va tendensiyalarini aniqlash;

fermer xo'jaliklari o'rtasida kooperatsiya munosabatlari va ularga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillarni baholash;

qishloq xo'jaligida kooperatsiya jarayoni va uning samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlarni statistik testlar yordamida aniqlash;

fermer xo'jaliklarida kartoshka ishlab chiqarishda kooperatsiya ta'sirini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish;

qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasida kooperatsiya munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Samarqand viloyatida kartoshka mahsulotlarini yetishtirish va qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish istiqbollari prognozlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida respublikamizdagi kartoshkachilikka ixtisoslashgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va monografik tadqiqotlar o'tkazish uchun Samarqand viloyatidagi kartoshka ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiya ishida mantiqiy, taqqoslama tahlil, statistik va ekonometrik modellashtirish, logistik regressiya (Conditional Logit Regression Model), yashirin guruh modeli (Latent class model), Tobit modeli hamda "ARIMA" modeli va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

kartoshka ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarining kooperatsiyaga kirishishga moyillik darajasini past ($0 \leq 0,36$), o'rta ($0,37 \leq 0,57$) va yuqori ($0,58 \leq 1$) mezonlar asosida baholash bo'yicha uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan;

kartoshkachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida norasmiy kooperatsiya munosabatlariga bo'lgan moyillik yerni tayyorlash (+19.9%), ekish (+17.6%), yig'im-terim (+22.7%) hamda iqlim o'zgarishi ta'siri (+14.4%) kabi omillar bilan bog'liqligi "LOGIT" modeli yordamida asoslangan;

davlat imtiyozli dasturlari asosida kartoshkachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining norasmiy kooperatsiyadan rasmiy kooperatsiyaga bosqichma-bosqich o'tishini rag'batlantiruvchi hamkorlik mexanizmining tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasi asoslangan;

Samarqand viloyati fermer xo'jaliklarida o'zaro hamkorlik munosabatlari rivojlanishi hisobga olingan holda kartoshka ishlab chiqarish dinamikasining 2032-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kartoshka yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari o'rtasida kooperatsiyaga kirishish darajasini baholash mezonlari ishlab chiqilgan va past, o'rta va yuqori darajadagi kooperatsiya munosabatlariga kirgan fermerlarda kooperatsiyada ishtirok barcha faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi asoslangan;

fermer xo'jaliklarining kooperatsiya munosabatlariga kirishi kartoshka ekinini ekishda ekin maydonini tayyorlash agregatlari mavjudligi bilan 9%, kartoshkani ekish agregatlari mavjudligi bilan 7%, hosilni terish agregatlari mavjudligi bilan 9% va sug'orishda suv nasoslari mavjudligi bilan 6%ga oshishi ilmiy asoslangan;

fermer xo'jaliklarining kartoshka ishlab chiqarish jarayonlarida kooperatsiya munosabatlariga kirishi — urug' xaridi, ekish maydonini tayyorlash va hosilni yig'ishtirishda hamda ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha o'zaro maslahatlashuv orqali kartoshka hosildorligini 1,8–2,3 tonnaga oshirishi ilmiy asoslangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xorijlik agrar-iqtisodchi olimlarning agrar islohotlar va fermerlar hamda qishloq xo'jaligida kooperatsiyani rivojlantirish masalalariga oid ilmiy-uslubiy tadqiqotlariga tayanalganligi, qo'llangan ma'lumotlarning uzoq muddatli va rasmiy statistik manbalardan olinganligi hamda fermer xo'jaliklari o'rtasida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning metodologiyasi atroflicha o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy va uslubiy-amaliy natijalar qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud resurslardan va infratuzilmadan kooperatsiya asosida o'zaro manfaatli hamda tejamli foydalanish evaziga mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, agrar sohaga oid ilmiy, uslubiy-amaliy va huquqiy-me'yoriy asoslarni takomillashtirish, shuningdek qo'llanilgan zamonaviy matematik va iqtisodiy modellar yordamida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini aniqlash, bashorat qilish va strategik rejalashtirish imkoniyatlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy jihatdan ushbu natijalar fermer xo'jaliklari o'rtasida o'zaro hamkorlik (kooperatsiya)ni tashkil etish va samarali rivojlantirish, shuningdek oliy o'quv yurtlarida "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiyoti" va "Institusional iqtisodiyot" fanlarini ta'lim jarayonida keng qo'llashda amaliy yo'nalish va qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini iqtisodiy baholash va uni takomillashtirish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy taklif va amaliy natijalar asosida:

kartoshka ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarining o'zaro kooperatsiyaga kirishish munosabatlarini baholovchi ko'rsatkichlar me'zonlari ishlab chiqilgan. Ushbu yangilik bo'yicha taklif Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasining qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida amaliyotga joriy etilgan (2026-yil 2-fevral) hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2026-yil 13-fevraldagi 06/26-2-10-05/17-son ma'lumotnomasi). Natijada, Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi kartoshka ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarining past ($0 \leq 0,36$), o'rta ($0,37 \leq 0,57$) va yuqori ($0,58 \leq 1$) mezonlari asosida kooperatsiyaga ishtirok etish salohiyatini aniq baholash imkoni ilmiy asoslangan;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasida o'zaro kooperatsiya munosabatlariga moyillikni asoslash, sektorda kompleks integrasion jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi amaliyotga qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2026-yil 13-fevraldagi 06/26-2-10-05/17-son ma'lumotnomasi). Ushbu yangilik bo'yicha taklif Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasining qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida amaliyotga joriy etilgan (2026-yil 2-fevral). Natijada Samarqand viloyatining uchta tumani Toyloq, Jomboy va Bulung'ur tumanlarida yer tayyorlash, yekish, yig'im-terim, iqlim o'zgarishi kabi omillarning 1 birlikka oshishi fermer xo'jaliklarining kooperatsiya munosabatlariga kirishish moyilligini o'rtacha 18,7 foizga oshirishi asoslagan;

davlat tomonidan amalga oshirilayotgan imtiyozli dasturlar doirasida kartoshkachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining norasmiy kooperatsiyadan rasmiy kooperatsiya shakllariga bosqichma-bosqich o'tishini rag'batlantiruvchi hamkorlik mexanizmining tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasi ilmiy asoslanib, amaliyotga joriy yetish bo'yicha taklif yetilgan. Ushbu taklif O'zbekiston Respublikasi Qonunining 2024-yil 8-noyabrda O'RBQ-995-sonli "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi 3-moddasida o'z tasdig'ini topgan hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan qishloq xo'jaligi tizim tashkilotlarida amaliyotga joriy yetilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2026-yil 13-fevraldagi 06/26-2-10-05/17-son ma'lumotnomasi). Ushbu yangilik bo'yicha taklif Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasining qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida amaliyotga joriy etilgan (2026-yil 2-fevral). Natijada, Kooperatsiya munosabatlariga kirgan fermer xo'jaliklarida kooperatsiya munosabatlariga kirmaganlarga qaraganda kartoshka hosildorligi o'rtacha 2-3 tonna yuqoriligi aniqlandi;

Samarqand viloyati fermer xo'jaliklarida o'zaro hamkorlik munosabatlarining rivojlanish tendensiyalari hisobga olingan holda, kartoshka hosildorligining 2032-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Ushbu taklif Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda vazirlik tarkibidagi "Agrar sohani iqtisodiy rivojlantirish va moliyalashtirish departamenti" tomonidan amaliyotga joriy yetilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2026-yil 13-fevraldagi 06/26-2-10-05/17-son ma'lumotnomasi). Toyloq tumani hokimligining 2026-yil 1-martdagi kartoshka yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari kooperatsiya munosabatlarini shakillantirishni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi asosida fermer xo'jaliklarida joriy etilgan. Natijada, Samarqand viloyatida kartoshkachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarda 2032-yilga kelib 316,1 s/ga dan 359,9 s/ga o'sishi yoki 43,8 foizdan, aksincha 13,9 foizga oshishi prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Ularning 2 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar, 4 tasi respublika va 2 tasi xalqaro konferensiyalardagi ma'ruzalar tezislari to'plamlarida nashr etilgan.


Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, o'z ichiga 22 ta jadval va 11 ta rasmni olgan. Umumiy hajmi 133 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, uning maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati bayon etilib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tatbiq etilganligi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi hamda uning tarkibiy tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida kooperatsiya munosabatlari va uning tashkiliy-huquqiy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida, xususan kartoshka yetishtirish tarmog'ida kooperatsiya munosabatlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari keng yoritilgan. Kartoshka mahsulotining agrotexnik, texnologik va infratuzilmaviy jihatdan boshqa ekin turlaridan farqlanishi, uni yetishtirish, saqlash jarayonlarida yuqori xarajat va tavakkalchiliklarning mavjudligi hisobga olingan holda, ishlab chiqarishni barqaror tashkil etishda kooperatsiyaning zarurligi nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Shuningdek, kartoshka yetishtirishda sifatli urug'lik, maxsus texnika, sovutkichli omborlarga bo'lgan ehtiyoj alohida ta'kidlanib, ushbu resurslardan individual fermer xo'jaliklari tomonidan samarali foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi ko'rsatib berilgan. Shu munosabat bilan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni jamoaviy asosda joriy etish, texnika va infratuzilmadan birgalikda foydalanish orqali xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari tahlil qilingan.



1-rasm. O'zbekiston hududida dehqonlarning kooperatsiya munosabatlariga kirishishining tarixiy formatsion usuli⁵.

Dunyo amaliyotida qishloq xo'jaligi kooperatsiyalarining rivojlanish tendensiyalari, ayniqsa intensiv ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llash orqali yuqori natijalarga erishayotgan mamlakatlar tajribasi o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston hududida dehqonlarning kooperatsiya munosabatlariga kirishishining tarixiy formatsion usuli (1-rasmga qarang)da Chor Rossiyasi tomonidan tashkil qilingan koopertivlarni yuritish hamda yerga ishlov berishda dehqonlar tomonidan kooperatsiya munosabatlariga kirishishi tasvirlangan.

Bunday formatsion usulda uy hayvonlariga ega bo'lmagan dehqonlar mehnat qurollari hamda ish kuchlari orqali (hashar) o'zaro kooperatsiya munosabatlariga kirishgan. Bu esa, usha davr uchun dehqonlarning mehnat samaradorligini oshishiga xizmat qilgan. Bugungi kunda, fermer xo'jaliklari o'rtasida kooperatsion munosa-batlarni iqtisodiyotiga ta'sirini tahlil qilishda bir nechta yondashuvlar va tadqiqot modellari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos xususiyati bilan ifodalanadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Kartoshkachilikda kooperatsiyaning o'ziga xos xususiyati⁶

№	Xususiyatlari	Tavsifi	Ilmiy manba
1	Fermerlar ehtiyojiga yo'naltirilganlik	Qishloq xo'jalik kooperatsiyalari a'zolarining ishlab chiqarish, marketing va xizmatga bo'lgan ehtiyojiga bevosita yo'naltiriladi	Bijman et al. (2012), <i>Annals of Public and Cooperative Economics</i>
2	Bozor risklarini kamaytirish	Kooperatsiyalar mahsulotni kollektiv sotish orqali narxning o'zgaruvchanligidan himoya yaratadi	Chaddad & Iliopoulos (2013), <i>Agricultural Economics</i>
3	Ko'lam iqtisodiyotiga erishish	Texnika, urug'lik, agroximik vositalarni birgalikda xarid qilish orqali ishlab chiqarish tannarxi kamaytiriladi	Cook & Burrell (2009), <i>Journal of Cooperatives</i>
4	A'zolik asosida o'zaro ishonchga tayanadi	Ko'p hollarda mahalliy fermerlar o'rtasida mavjud bo'lgan ishonch kooperativning asosiy	Valentinov (2007), <i>Journal of Institutional Economics</i>

⁵ Muallifning ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan

⁶ Muallifning ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan

		harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi	
5	Qayta ishlash va saqlash infratuzilmasini yaratish	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo'yicha umumiy quvvatlar yaratiladi	Mazzarol et al. (2011), <i>International Journal of Rural Management</i>
6	Davlat bilan yaqin hamkorlik	Ko'pchilik mamlakatlarda kooperativlar davlat subsidiyalari, grantlar va qishloq rivojlantirish dasturlarida ishtirok etadi	OECD (2021), <i>Agricultural Policy Monitoring and Evaluation</i>
7	Bilim almashinuvi va maslahat xizmati	Kooperativlar doirasida tajriba almashish, agronomik va menejment bo'yicha treninglar yo'lga qo'yiladi	Fulton & Hueth (2009), <i>American Journal of Agricultural Economics</i>
8	Yagona brend ostida mahsulot sotish	Kooperativlar o'z mahsulotini brendlab, eksport yoki yirik chakana tarmoqlarga yetkazadi	Iliopoulos & Chaddad (2012), <i>Strategic Management Journal</i>
9	Mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik	Ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni kamaytirish va migratsiyani cheklashda muhim rol o'ynaydi	Zeuli & Cropp (2004), <i>Cooperatives: Principles and Practices in the 21st Century</i>
10	O'zini-o'zi boshqarish	Qishloq xo'jalik kooperativlari davlatdan mustaqil, o'z a'zolari tomonidan boshqariladi	Hansmann (1996), <i>The Ownership of Enterprise</i>

Dunyo olimlari tomonidan fermer xo'jaliklari o'rtaasida kooperatsiya munosabatlarni iqtisodiy ta'sirini baholashda parametrik va noparametrik modellaridan foydalanishgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Kooperatsiya munosabatlaiga ta'sirini baholashda qo'llaniladigan uslublar va ularning bog'liqlik xususiyatlari⁷

T/r	Tavsifi	FA	LCA	LR	Tobit	ARIMA
1.	Parametrik metod	+	+	+	+	+
2.	Chetlanishlarni hisobga olishda	+	+	+	+	+
3.	Hisoblashda qo'llanilish jihati:					
-	Kooperatsiyani ifodalovchi ko'rsatkichlarni indekslash	+	-	-	-	-
-	Fermer xo'jaliklarini kooperatsiyaga moyilligini baholashda	-	+	+	+	-
-	Kartoshka ishlab chiqarish hosildorligiga omillar ta'sirini baholashda	+	+	+	+	-
-	2032-yilgacha vaqt qatorlaridagi (time series) kelajak qiymatlarni bashorat qilishda	-	-	-	-	+
4.	Ma'lumotlardan foydalaniladi:					
-	Kross kesimidagi	+	+	+	+	-
-	Davrli (vaqtli) qatorlar	-	-	-	-	+
5.	Dastlabki metodni qo'llashda talab etiladigan ma'lumotlar					

⁷ Adabiyotlardan foydalangan holda muallif ishlanmasi.

-	Kooperatsiyani ifodalovchi ko'rsatkichlar	+	+	+	+	+
-	Kartoshka hosili va unga ta'sir etuvchi sifat va miqdor ko'rsatkichlar	+	+	+	+	+

2-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, kooperatsiya munosabatlarini tahlil qilishda qo'llanilgan modellar bir-birini to'ldiruvchi metodologik yondashuvlar sifatida namoyon bo'ladi. Barcha modellar parametrik usullarga mansub bo'lib, ular statistik baholash va iqtisodiy talqin qilish imkonini beradi. Hisoblashlar jarayonida ehtimollik va regressiya asosidagi yondashuvlardan foydalanilgan bo'lib, bu tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini oshiradi.

Shuningdek, modellar foydalanadigan ma'lumotlar turi ham farqlanishi ko'rsatilgan. LCA, Logit va Tobit modellarida asosan qisqa davrdagi ko'p o'zgaruvchili (cross-section) va dastlabki so'rov ma'lumotlaridan foydalanilgan bo'lsa, ARIMA modelida davriy, ya'ni vaqt qatorlari ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qilgan. Bu esa, tadqiqotda mikro va makro darajadagi tahlillar uyg'un holda olib borilganini ko'rsatadi.

Fermer xo'jaliklari o'rtasida kooperatsiyani, ya'ni umumiy xususiyatni ifodalovchi o'zgaruvchilardan indeks ko'rsatkichini yaratishda tasodifiy tanlanma usulidan foydalanilgan holda 168 ta fermer xo'jaliklari subyektlaridan ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada Samarqand viloyatining uchta tumani Bulung'ur, Jomboy va Tayloq tumanlari fermer xo'jaliklari ishtirok etdi (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

Kartoshka yetishtirishda fermer xo'jaliklari tomonidan kooperatsiya munosabatlarini ifodalovchi o'zgaruvchilarning statistikasi⁸

Ko'rsatkichlar	Kooperatsiya munosabat, %
Yer tayyorlash jarayonida o'zaro texnik yordam ko'rsatish (Land preparation)	55,4
Suv inshootlaridan birgalikda foydalanish (Water)	55,4
Kartoshka urug'lik materiallarini birgalikda xarid qilish (Seed)	48,8
Yig'im-terim mavsumida o'zaro texnik yordam ko'rsatish (Harvest)	44,0
Kartoshka ishlab chiqarish jarayonida maslahatlashuv (Advice)	39,3
Mahsulotni saqlash va saqlash omborlarini ijaraga olish (Save)	35,7
Birgalikda ug'it xarid qilish va qo'llash (Fertilizer)	32,7

Izoh: So'rovnomada ishtirok etgan jami fermer xo'jaliklari soniga nisbatan olingan.

3-jadvalda qishloq xo'jaligi subyektlarining kooperatsiya asosida o'zaro hamkorlik munosabatlari statistik tavsifi yoritilgan bo'lib, dunyo tajribasi bilan solishtirganda ushbu natijalar, qishloq xo'jaligida kooperatsiyaning ishlab chiqarish jarayonlaridagi muhimlik darajasini tadqiq qilish imkonini beradi. 168 ta fermer xo'jaliklari subyektlari yer tayyorlash jarayonida o'zaro

⁸ Muallifning so'rovnoma ma'lumotlari asosida

texnik yordam ko'rsatish va suv inshootlaridan birgalikda foydalanishda mos ravishda 55,4 foizi hamkorlik qilishadi. Shuningdek, kartoshka urug'lik materialini birgalikda xarid qilish 48,8 foiz, hosilni yig'ish mavsumida o'zaro texnik yordam ko'rsatish 44 foiz, ishlab chiqarish jarayonida agrotexnologik maslahatlashish 39,3 foiz, mahsulotni saqlash 35,7 foiz va o'g'it xarid qilishda 32,7 foiz fermerlar kooperatsiya munosabatiga kirishgan. Ushbu ma'lumotlar asosida, Omilli tahlil modelidan foydalanilgan holda Samarqand viloyati fermer xo'jaliklarida kartoshka yetishtirishda kooperatsiya munosabatlari indeksi ishlab chiqildi (4-jadvalga qarang).

4-jadval.

Omili tahlil modeli test natijalari⁹

№	Indeks	Shartlar va test natijalari		
		KMO $\geq$ 0,50	p=0,000	Det>0,00001
1.	Kooperatsiyalashuv indeksi	0,826	0,000	0,426

4-jadvalga ko'ra, "Kooperatsiyalashuv indeksi"ni ishlab chiqishda (i) KMO(Kaiser-Meyer-Olkin Measure), (ii) Bartlet test(Bartlett test, χ^2) va (iii) Korrelyasion matrisa(Correlation matrix) test tahlil shartlarini qanoatlantirdi va Omil tahlil modelidan foydalanishdan dalolat beradi. Shu o'rinda, fermer xo'jaliklari o'rtasida kartoshka yetishtirishda kooperatsiya munosabatlarini guruhlashda Yashirin guruh modeli (Latent class model)dan foydalangan holda guruhlarga ajratildi va guruhlarga ajratishda Akaike axborot mezoni (AIC) va Bayes axborot mezoni (BIC)dan foydalanib, eng kichik qiymatlari olindi (5-jadvalga qarang).

5-jadval.

Yashirin guruh modeli uchun kooperatsiya munosabatlarini ifodalovchi o'zgaruvchilarni guruhlashda Akiyaki-Bays (AIC, BIC) mezolari¹⁰

T/r	Ko'rsatkichlar	AIC	BIC	Entropiya
1.	Kooperatsiya munosabatlarini ifodalovchi o'zgaruvchilarni guruhlash	1595.812	1617.681	-
		1519.035	1565.894	0.596
		1458.131	1529.983	0.675
		1424.256	1505.178	0.665

Tahlil natijasiga ko'ra, Yashirin guruh modelidan foydalanilgan holda fermer xo'jaliklari subyektlari o'rtasida kartoshka yetishtirishda kooperatsiya munosabatlariga kirishishning past, o'rta va yuqori guruhlari ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).


2-rasmga ko'ra, past darajada kooperatsiyaga kirgan fermer xo'jaliklarida asosan kartoshka urug'lik materiallarini birgalikda xarid qilish jarayonida ko'proq kooperatsiya munosabatiga kirishgan. Bu borada, past darajada kooperatsiya munosabatlarini amalga oshiruvchi fermer xo'jaliklari faqat ushbu omil kartoshkani hosildorligini oshirish va/yoki xarajat sarfini kamaytiruvchi omil sifatida ko'rishgan. Vaholanki, fermer

⁹ Muallifning so'rovnoma ma'lumotlari asosida

¹⁰ Muallifning so'rovnoma ma'lumotlari asosida


xo'jaliklari tomonidan barcha agrotexnologik jarayonlarda birgalikda kooperatsiya munosabatlarning shakllanishi muhim ahamiyatga ega.

Xususan, yer tayyorlash jarayonida o'zaro texnik yordam ko'rsatish, suv inshootlaridan birgalikda foydalanish, kartoshka urug'lik materiallarini birgalikda xarid qilish, yig'im-terim mavsumida o'zaro texnik yordam ko'rsatish, kartoshka ishlab chiqarish jarayonida maslahatlashuv, mahsulotni saqlash va saqlash omborlarini ijaraga olish hamda birgalikda ug'it xarid qilish va qo'llash shular jumlasidan.



2-rasm. Fermer xo'jaliklarida kooperatsiya munosabatlariga guruhlar ichida kirishi¹¹

Shu o'rinda, guruhlar o'rtasida kartoshka ishlab chiqarishda hosildorlik bilan qanday bog'langanligi va guruhlarining chegaralarini aniqlashda Kooperatsiyalashuv indeksi¹²ni ifodalovchi ko'rsatkichdan foydalanildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Ishlab chiqilgan mezon asosida fermer xo'jaliklarining kooperatsiyalashuv ko'rsatkichi¹², %da

Tahlil natijalariga ko'ra, fermer xo'jaliklari o'rtasida kartoshka yetishtirishda kooperatsiya munosabatlarida "past" darajada bo'lgan xo'jalik subyektlari 17,9 foizni tashkil etib, ularning hamkorlik mexanizmlarining cheklanganligini ifodalaydi. Shuningdek, fermer xo'jaliklarining 44,7 foizi "o'rta" darajada, qisman, ammo barqaror kooperatsiyaga va 37,4 foizi "yuqori" darajada, ko'p yo'nalishli va tizimli kooperatsiya munosabatlariga kirishgan.

¹¹ So'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif tahlili.

¹² So'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif tahlili.

Xulosa qilib aytganda, nazariy tushunchalar, xorij tajribalarini taqqoslama tahlili asosida o'tkazgan tadqiqotimiz qishloq xo'jaliklari subyektlari o'rtasida kooperatsiya munosabatlari faoliyatga ijobiy ta'siri ilmiy asoslanib, kooperatsiya munosabatlariga kirishishning "past", "o'rta" va "yuqori" mezonlari ishlab chiqildi. Shu boisdan, ushbu amaliyotni Samarqand viloyatining fermer xo'jaliklariga tadbiq etish, ilmiy va amaliy jihatdan asoslash muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning "Qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarining fermer xo'jaliklari faoliyatiga ta'sirini iqtisodiy baholash" deb nomlangan ikkinchi bobida Samarqand viloyatida fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy va qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklari kooperatsiyasining holati tahlili yoritilgan hamda faoliyatda kooperatsiya munosabatlariga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baho berilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarga asosan fermerlar tomonidan kartoshka ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatlari mavjud. Bu borada, xo'jalik subyektlari o'rtasida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish va mustahkamlash muhim ahamiyatga egaligini tahlil natijalari ko'rsatmoqda. Vaholanki, fermer xo'jaliklari subyektlari o'rtasida kooperatsiya munosabatlariga kirishga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash muhimligini ko'rsatmoqda (6-jadvalga qarang).

6-jadval.

Fermer xo'jaliklarini norasmiy kooperatsiya munosabatlariga kirish ehtimolini iqtisodiy baholash¹³ (logit modeli)

T/r	Ko'rsatkichlar	Nisbiy ehtimollik koeffitsiyenti (odds ratio)	Delta metod	
		Koef. (St.Xat.) Muh.	Mar/Eff (st.xat) Muh.	
1.	Yer tayyorlash	2.275 (.818)**	0.199(0.087)**	
2.	Ekish	2.068(.845)*	0.176(0.099)*	
3.	Yig'g'im terim	2.551(1.04)**	0.227(0.099)**	
4.	Suv nasosi	2.205(.728)**	0.192(0.080)**	
5.	Iqlim o'garishi ta'siri	1.813(.625)*	0.144(0.084)*	
6.	Kartoshka maydoni	2.391(.527)***	0.211(0.055)***	
7.	Talim	4.056(1.05)***	0.340(0.061)***	
8.	Tajriba	1.116(.035)***	0.027(0.008)***	
9.	Yosh	.981(.017)	-0.005(0.004)	
	Constant	.0009(.0001)***		
-	O'rtacha qiymati	0.458	Standart og'ishi	0.499
-	Psevdo R-kvadrat	0.523	Kuzatuvlar soni	367
-	Chi-kvadrat statistikasi	264.748	Prob > chi2	0.000
-	Akaike mezoni. (AIC)	265.401	Bayes mezoni (BIC)	312.265


*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

¹³ So'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif tahlili.

6-jadval tahlil natijasiga ko'ra, yer tayyorlash, ekish, yeg'im terim jarayonlari, suv nasosining mavjudligi, iqlim o'zgarishlari ta'siri, kartoshka ekin maydonining kengayishi, ta'lim darajasining o'sishi, fermermer xo'jaliklarining tajribasining ortib borishi fermerlarning norasmiy kooperatsiya munosabatlariga kirish ehtimoliga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, biroq fermer xo'jalik rahbarining yosh ko'rsatkichining o'sishi salbiy ta'sirga ega.

Shuningdek, fermer xo'jaliklarida texnologik resurslardan foydalanish holati bilan norasmiy kooperatsiyaga moyillik o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi (4-rasmga qarang).


To'rtta asosiy texnologik resurs turi, yer tayyorlash agregati, kartoshka ekish agregati, kartoshka qazish agregati va suv nasosidan foydalanish holatlari bo'yicha fermerlar ikki guruhga ajratildi, ya'ni fermer xo'jaliklarida texnologik resurs mavjud bo'lmasa – 0 va aksinch 1. Natijalar shuni ko'rsatadiki, barcha texnologik resurslar mavjud bo'lgan fermer xo'jaliklari subyektlarining norasmiy kooperatsiyaga moyillik darajasi mavjud bo'lmaganlarga nisbatan yuqoriroq.



4-rasm. Fermer xo'jaliklarida texnologik resurslardan foydalanishning norasmiy kooperatsiyaga moyillik ta'sirini baholash¹⁴ (% da)

Olingan tahlil natijalari asosida kooperativ tuzilma va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi rasmiy kooperatsiyaning tashkil etish mexanizmi ishlab chiqildi (5-rasmga qarang).

¹⁴ So'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif tahlili.



5-rasm. Rasmiy qishloq xo'jalik kooperatsiyasini tashkil qilish mexanizmi¹⁵

Mexanizmning yuqori qismida davlatning qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan ta'siri markaziy o'rin egallaydi. Bu ta'sir uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

Birinchi yo'nalish, davlat tomonidan fermerlarni kooperatsiyaga jalb etuvchi iqtisodiy rag'batlantirish vositalari.

Ikkinchi yo'nalish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan yagona raqamli platformani yaratish.

Uchinchi yo'nalish, normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash.

Markaziy qismida kooperativ uyushma joylashgan bo'lib, u rasmiy kooperatsiyaning asosiy tashkiliy bo'g'inidir.

Quyi qismida fermer xo'jaliklarining kooperatsiyaga ishtirok etishdagi huquqlari va majburiyatlari keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, fermer xo'jaliklarining kooperatsiyaga kirish ehtimoli asosan texnologik resurslarga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanishini ko'rsatdi. Fermer xo'jaliklari norasmiy kooperatsiya orqali qisqa muddatli samaradorlikni oshirayotgan bo'lsa-da, uning institutsional imkoniyatlari cheklangan. Shu bois norasmiy hamkorlik tajribalarini rasmiy kooperatsiya shakliga o'tkazish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlantiradi va raqobatbardoshligi oshadi.

Dissertatsiyaning **“Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida kooperatsiya va uning rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida qishloq xo'jaligida kooperatsiya jarayoni va unga ta'sir etuvchi omillar ta'siri hamda Samarqand viloyatida kartoshka mahsulotlarini yetishtirishni rivojlantirish istiqbollari tahlili amalga oshirilgan.

Qishloq xo'jaligida hosildorlikning barqaror oshishi nafaqat agrotexnologik omillar, balki institutsional muhit bilan ham chambarchas

¹⁵ Tahlil natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bog'liq. So'nggi yillarda Yevropa va Osiyo mamlakatlari misolida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, fermerlar kooperatsiyasi hosildorlikka bevosita ta'sir etuvchi muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Kooperativlar orqali ishlab chiqaruvchilar yuqori sifatli urug'lik, zamonaviy agrotexnika, ilmiy asoslangan ekish va yetishtirish texnologiyalariga yaxshiroq kirish imkoniga ega bo'ladi, bu esa bevosita hosil hajmining oshishida aks etadi. Bunda hosildorlik ko'rsatkichi ma'lum chegaralar bilan cheklangan (masalan, manfiy bo'lishi mumkin emas yoki kuzatuvlar past qiymatlarda jamlangan) sharoitda omillarning ta'sirini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Kartoshka hosildorligiga ta'sir etuvchi omillarni baholashda tobit regressiya modelidan foydalanildi va Delta usuli asosida hisoblangan marginal ta'sirlar keltirilgan bo'lib, ular kartoshka hosildorligiga omillarning yo'nalishi va muhimligini ifodalaydi (7-jadvalga qarang).

7-jadval ma'lumotlariga ko'ra, urug' xaridida kooperatsiya omili bo'yicha koeffitsient 2,396 ga teng va statistik 1 foiz ($*** p < .01$) likda muhim ahamiyatga ega. Urug' xaridini kooperatsiya asosida amalga oshirgan fermer xo'jaliklarida kartoshka hosildorligi oshishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Amaliy jihatdan bu sifatli urug'ga birgalikda kirish imkoniyati, xarajatlarni kamaytirish va urug' tanlashdagi axborot ustunligi bilan izohlanadi. Delta usuli bo'yicha ham ushbu omilning ijobiy ta'siri tasdiqlanadi. Yer tayyorlash omili bo'yicha koeffitsient 1,835 ga teng bo'lib, u ham statistik jihatdan ahamiyatlidir. Bu yer tayyorlash ishlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi kartoshka hosildorligini oshirishda muhim rol o'ynashini anglatadi.

7-jadval.

**Kartoshka hosildorligiga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash
(tobit modeli)¹⁶**

T/r	Ko'rsatkichlar	Nisbiy ehtimollik koeffitsiyenti	Delta metod
		Koef. (St.Xat.) Muh.	Mar/Eff (st.xat) Muh.
1.	Urug'xaridida kooperatsiya	2.396 (.619)***	2.396 (0.619)***
2.	Yer tayyorlash	1.835 (.506)***	1.835 (0.506)***
3.	Yig'im terim	1.885 (.52)***	1.885 (0.520)***
4.	O'zaro maslahatlashuv	2.094 (.535)***	2.094 (0.535)***
5.	O'g'it xaridida kooperatsiya	1.595 (.533)***	1.595 (0.533)***
6.	Kartoshka maydoni	.431 (.219)*	0.431 (0.219)*
7.	Jins	1.034 (.595)*	1.034 (0.595)*
8.	Talim	1.012 (.3)***	1.012 (0.300)***
9.	Tajriba	.12 (.044)***	0.120 (0.044)***
10.	Yosh	-.016 (.022)	-0.016 (0.022)
	Constant	19.784 (1.169)***	
-	Xatolik hadining	18.588 (1.372)	

¹⁶ So'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif tahlili.

	dispersiyasi			
-	Bog'liq o'zgaruvchining o'rtacha qiymati	28.739	Bog'liq o'zgaruvchining standart og'ishi	5.445
-	R-kvadrat	0.075	Kuzatuvlar soni (N)	367
-	Chi-kvadrat statistikasi	170.355	Prob > chi2	0.000
-	Akaike mezoni. (AIC)	2138.072	Bayes mezoni (BIC)	2184.93

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

